

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH

Artiqboyeva Latofat Musurmonovna

Zomin tumani 73-maktab

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash jarayonida badiiy adabiyot namunalaridah samarali foydalanish masalasi yoritilgan. Badiiy adabiyotning bolalar ma‘naviy -axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni, uning ta‘lim tarbiya jarayoniga integratsiyasi, shuningdek, o‘zbek, rus va jahon bolalar adabiyoti namunalarining pedagogic ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada boshlang‘ich ta‘limda badiiy matnlar orqali vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning metodik jihati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, tarbiya, badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti, axloqiy tarbiya, o‘quvchilar shaxsini shakllantirish, pedagogika.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlod har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalanish ta‘lim tizimining muhim vazifasidan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri bolalar shaxsining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, bu davrda berilgan tarbiya keying ta‘lim bosqichlarining poydevorini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot bolalarning tasavvuri, nutqi, tafakkuri va axloqiy qarashlarini rivojlantiradi. Ertaklar, she‘rlar, hikoyalar va qissalar orqali o‘quvchilar yaxshilik va yomonlik do‘stlik va sadoqat, mehnatsevarlik va mas‘uliyatlik kabi tushunchalarni oson va ta‘sirchan tarzda anglaydilar.

Badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati. Badiiy adabiyot- bu nafaqat estetik zavq Manbai balki kuchli tarbiyaviy vositadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan adabiy asarlar qahramonlarixatti-harakarlari orqali axloqiy me‘yorlar

singdiriladi. Masalan o'zbek xalq ertaklari va bolalar yozuvchilarining asarlariorqali vatanparvarlik,kattalarga hurmat, kichiklarga mehr kabi qadriyatlar shakllantiriladi.

Boshlang'ich ta'limda adabiy matnlardan foydalanish metodikasi.Boshlang'ich sinflarda badiiy adabiyotdan foydalanish jarayoni maqsadli va tizimli bo'lishi lozim.O'qituvchi asar tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi va qiziqishlarini hisobga olish zarur.Matn ustida ishlash jarayonida savol-javob,rolli o'yinlar, sahnalashtirish kabi interfaol metodlardan foydalanish oquvchilarning faolligini oshiradi.

Boshlang'ich ta'lim da badiiy matnlar tanlashda quyidagi omillar hisobga olinishi lozim.

1. Tanlangan badiiy matn o'quvchilar yosh xususiyatlari hisobga olinishi kerakligi
2. Asar targ'ib qiladigan g'oyalar o'quvchilarni ezgulikka chorlashi
3. Ijtimoiy hayotda olgan bilimlarini qo'llashi bo'yicha ko'nikmani shakllanishi
4. Tanlangan asar o'quvchining ruhiyatiga salbiy tasir qilmasligi lozim
5. Nashrdan chiqarilayotgan badiiy asarlarni kuchli nazorat qilinishi

O'quvchilar asosan badiiy adabiyot namunalari bilan darslikda keltirilganlari bilan tanishadilar. Qolgan paytda ixtiyoriy kutubxona va uyda mustaqil o'qib tarbiyalanadilar.

O'zbek rus va jahon bolalar adabiyoti namunalari o'rni.Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda ko'p millatli adabiy merosdan foydalanish muhimdir.O'zbek bolalar adabiyoti bilan bir qatorda rus va jahon adabiyoti namunalari o'rganish bolalardan madaniyatlararo muloqat ko'nikmalarini rivojlantiradi.Masalan, K.D.Ushinskiy, A.Pushkin, H.K.Andersin asarlari bolalarda insoniylik va adolat tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda badiiy adabiyot namunalariidan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchi shaxsini har tamonlama rivojlantiridhga xizmat qiladi.Badiiy asarlar orqali berilgan tarbiya

bolalar ongida mustahkam oʻrnatilib, ularning kelajakdagi ijtimoiy hayotiga taʼsir koʻrsatadi. Shu bois, boshlangʻich taʼlim tizimida badiiy adabiyotdan foydalanishni yanada takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqishga qiziqishini oshirishda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

1. Didaktik oʻyinlar – Oʻyin orqali oʻrgatish bolalarning eʼtiborini jalb qiladi. Har bir mavzu uchun oʻyinli topshiriqlar tuzish oʻquvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

2. Ragʻbatlantirish – Oʻquvchini ijobiy soʻz, baho yoki kichik sovgʻalar bilan ragʻbatlantirish, ularda oʻzini koʻrsatish istagini kuchaytiradi.

3. Oʻquv materiallarini jonlantirish – Multimediali vositalar, video va audio darslar orqali oʻrgatish oʻquvchini zeriktirmaydi, balki vizual tasavvurni kuchaytiradi.

4. Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv – Har bir bolaning qiziqishini, xarakterini, qobiliyatini inobatga olgan holda dars tashkil etish ularning faolligini oshiradi.

5. Ijodiy topshiriqlar – Sheʼr yozish, rasm chizish, hikoya tuzish kabi ijodiy mashgʻulotlar orqali oʻquvchilar oʻz fikrlarini ifodalashga oʻrganadilar.

Zamonaviy taʼlim jarayonida pedagogning innovatsion texnologiyalarni oʻz faoliyatiga tatbiq etishi oʻquvchilarning darsga boʻlgan munosabatini tubdan oʻzgartiradi. Video, animatsiya, prezentatsiya, audio materiallar orqali dars oʻtish oʻquvchilarni zeriktirmaydi, balki vizual eslab qolish koʻnikmasini rivojlantiradi. Bundan tashqari, shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvni qoʻllash – yaʼni har bir oʻquvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda dars oʻtish – ularning oʻz-oʻzini anglashiga va qiziqishining ortishiga sabab boʻladi. Qiziqishni shakllantirishda ijodiy topshiriqlarning ahamiyati katta. Hikoya tuzish, sheʼr yozish, rasm chizish kabi mashgʻulotlar orqali oʻquvchi faqat tayyor bilimni olmaydi, balki oʻz tafakkurini ishga soladi. Ularning fantaziyasi uygʻonadi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Bu esa faqat oʻqishga emas, balki hayotdagi boshqa jarayonlarga nisbatan ham faol boʻlishiga turtki beradi. Shu bilan

birga, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, nutqi, muomalasi, bolalarga mehr bilan yondashuvi ham o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Samimiy, ijodkor, zamonaviy yondashuvga ega pedagog bilan dars o'quvchi uchun yoqimli va quvonchli jarayonga aylanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qishga qiziqishni shakllantirish – bu murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, u faqatgina darslik asosida emas, balki pedagogning ijodkorligi, didi va bolaga bo'lgan samimiy munosabati orqali yuzaga chiqadi. Bunday yondashuv o'quvchilarni nafaqat yaxshi bahoga intilishga, balki haqiqiy bilim olishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat, 2008- yil.
- 2.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud ahloq.-Toshkent,2019.
- 3.Ushiniskiy K.D. Inson tarbiyasi predmeti sifatida.-Moskva, 2015.
- 4.Andersen H.CH. FairyTales.-Copenhagen,2010.
- 5.www.ziyonet.uz